

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
PEDAGOGIKA FAKULTETI
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

JAHONGIROVA DILAFRUZ QOSIM QIZINING

5110900-Pedagogika va psixologiya yo`nalishi bo`yicha bakalavr
malakaviy darajasini olish uchun tayyorlangan

**«PEDAGOGIKA KOLLEJI O`QUVCHILARINI
IJTIMOIY MOSLASHTIRISH TEXNOLOGIYASI»**

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Ilmiy rahbar

D.T.Usmonova

Bitiruv malakaviy ish kafedradan dastlabki himoyadan o`tdi.

_____ sonli bayonnomasi “ ____ ” _____ 2015

NAVOIY – 2015

MUNDARIJA

	KIRISH	3
I BOB	PEDAGOGIKA KOLLEJI O'QUVCHILARINI IJTIMOY MOSLASHTIRISHNING NAZARIY MASALALARI	
1.1.	Pedagogika kolleji o'quvchilarini ijtimoiy moslashtirish muhim muammo sifatida	9
1.2.	Pedagogika kolleji o'quvchilarini ijtimoiy moslashtirish mazmuni	14
II BOB	PEDAGOGIKA KOLLEJI O'QUVCHILARINI IJTIMOY MOSLASHTIRISHNING AMALIY-TEXNOLOGIK JIHATLARI	
2.1.	Auditoriya sharoitida pedagogika kolleji o'quvchilarini ijtimoiy moslashtirishning texnologik shart-sharoitlari	22
2.2.	Auditoriyadan tashqari jarayonda pedagogika kolleji o'quvchilarini ijtimoiy moslashtirish texnologiyasi	29
III BOB	PEDAGOGIKA KOLLEJI O'QUVCHILARINI IJTIMOY MOSLASHTIRISH SAMARADORLIGI	
3.1.	Pedagogika kolleji o'quvchilarini ijtimoiy moslashtirishga doir tajriba-sinov mazmuni	42
3.2.	Pedagogika kolleji o'quvchilarini ijtimoiy moslashtirishga doir tajriba-sinov ishlari natijalari	46
	XULOSA	54
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI	56
	ILOVALAR	59

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Xalqaro miqyosda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishning yanada chuqurlashuvi, erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish uchun zarur siyosiy jihatdan faol fuqarolar – yuqori saviyali mutaxassislarni, mehnat bozorida raqobatbardosh va bozor munosabatlari sharoitida hamkorlikdagi faoliyatga qodir kadrlarni yetishtirish zarurati pedagogik kadrlarni tarbiyalash muammosini yanada dolzarblashtirmoqda. Bu muammolarning muvaffaqiyatli yechimi eng avvalo, oliy pedagogik ta’lim muassasalarining jamiyatning o’zgaruvchan talablariga mos javob qaytara olishi, bo’lajak o’qituvchilarda kasbiy ahamiyatli xususiyatlarni shakllantirish qobiliyatiga bog’liqdir.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov o’zining “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida “Barchamizga ayonki, inson qalbiga yo’l avvalo ta’lim-tarbiyadan boshlanadi. Shuning uchun qachonki bu haqda gap ketsa, ajdodlarimiz qoldirgan bebaho merosni eslash bilan birga, ota-onalarimiz qatori biz uchun eng yaqin bo’lgan yana bir buyuk zot – o’qituvchi va murabbiylarning olijanob mehnatini hurmat bilan tilga olamiz.

Biz yurtimizda yangi avlod, yangi tafakkur sohiblarini tarbiyalashdek mas’uliyatli vazifani ado etishda birinchi galda ana shu mashaqqatli kasb egalariga suyanamiz va tayanamiz, ertaga o’rnimizga keladigan yoshlarning ma’naviy dunyosini shakllantirishda ularning xizmati naqadar beqiyos ekanini o’zimizga yaxshi tasavvur qilamiz” degan fikrlarni alohida ta’kidlab o’tadi¹.

O’zbekistonda mustaqillikni qo’lga kiritgan dastlabki davrlardanoq intellektual salohiyati yuqori kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo’naltirilgan davlat siyosati olib borilmoqda. Mustaqillik yillarida yangi avlod erkin, tanqidiy, ijodiy va mustaqil tafakkurga ega, mustamlakachilik davrida o’sgan avloddan farqli, ijtimoiy qo’rquvdan va milliy nomukammalilik tuyg’usidan xoli, siyosiy va ijtimoiy faol, izlanuvchan va omilkor, milliy va jahon madaniyatidan xabardor, yuksak ma’naviyatli shaxs bo’lib shakllanishi lozim,

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – Б.130.

degan vazifa ko'ndalang qo'yildi. Bu yo'lda amalga oshiriladigan asosiy vazifalardan biri mustaqil O'zbekistonni rivojlanishiga asos bo'ladigan yangi ta'lim tizimini yaratishdan iborat edi. 1997 yil 29 avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» uni amalga oshirish uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Jumladan, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ga muvofiq, uzluksiz ta'lim tizimining asosiy turlaridan biri kasb-hunar kollejlari ekanligiga guvoh bo'lamiz. Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini beradi. Pedagogika kollejlari ham ana shunday turdagi ta'lim muassasalari qatoriga kiradi. Pedagogika kollejlarida “Jismoniy tarbiya va bolalar sporti”, “Ixtisoslashgan boshlang'ich ta'lim”, “Maktabgacha va maktabdan tashqari tashkiliy tadbirlar shug'ullanuvchi” kasblari bo'yicha mutaxassislar tayyorlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisning IX sessiyasida so'zlagan «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» deb atalgan nutqida ikkinchi masala sifatida tarbiyachi, ya'ni o'qituvchiga alohida to'xtalib o'tilgan. Prezident nutqida tarbiyachilarning o'zlariga zamonaviy bilim berish, ularning ma'lumotini, malakasini oshirish kabi vazifalarni paysalga solib bo'lmasligini alohida ta'kidlab o'tadi².

Ma'lumki, pedagogika kollejarining muhim vazifalaridan biri – bu o'quvchilarni o'qitishning yangi tizimiga, yangi ijtimoiy munosabatlarga ijobiy moslashuvini, kollej o'quvchisi maqomini muvaffaqiyatli o'zlashtirishlarini ta'minlashdir. Chunki birinchidan, umumiy o'rta ta'limda pedagogikaga oid fanlar o'qitilmaydi, ikkinchidan pedagogika kollejida o'qitish tizimi auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar majmuini o'zida aks ettiradi, bu o'quvchidan yangi o'qitish shakllarini o'zlashtirishni talab etadi; uchinchidan o'quvchilar yangi guruhida qadriyatlar tizimining shakllanishi va mavjud me'yor-qadriyatlarga moslashuv ham murakkab kechadi. Pedagogika kolleji o'qishning birinchi

² Баркамол авлод – Ўзбекистон таракқиётининг пойдевори. – Т.: Шарқ, 1997. – Б.7.

yilidanoq o'quvchilarning o'qishga, bo'lajak kasbiy faoliyatga bo'lgan munosabati shakllanadi, "o'zini izlash" faol davom etadi. Hatto umumiy o'rta ta'limni a'lo baholar bilan tugatgan o'quvchilarda ham o'z kuchiga ishonch hissi birdan shakllanib qolmaydi. Aynan birinchi muvaffaqiyatsizlik o'quvchilarda ko'pgina hollarda sustlik, tushkun kayfiyat, istiqbolni ko'ra bilmaslik kabi salbiy holatlarni keltirib chiqaradi. Ana shu sababli o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvi bosqichlarini, har bir bosqich mazmuni, shakl, metod va vositalarini aniqlash o'zida muhim pedagogik muammoni aks ettiradi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Shaxsning jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuvi masalasi hamma davrlarda muhim ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy kabi Sharq mutafakkirlari mazkur muammoning o'ziga xos yechimlarini o'z asarlarida ilmiy asosda yoritib berganlar.

Ijtimoiy moslashuv muammosining tibbiy-fiziologik hamda falsafiy-sotsiologik jihatlari M.Bekmurodov, K.Tulenova, D.Sharipova, V.N.Sudakov kabi olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida yoritib berilgan.

Psixolog olimlardan N.S.Safayev, O.Hayitov, N.G.Kamilova, Ye.M.Borisova, A.L.Venger, S.A.Gaponova, N.N.Melnikova kabilar ijtimoiy moslashuvning psixologik jihatlari tadqiq etganlar.

Pedagog olimlardan N.N.Azizxo'jayeva, M.Quronov, X.I.Ibragimov, A.V.Mudrik, F.R.Yuzlikayev, N.M.Egamberdiyeva, M.Qurbonboyev, A.V.Sichev, V.P.Tarantey, A.N.Shepilova, Sh.A.Sodiqova, Z.T.Saliyeva, N.G.Ismatova, G.Q.Mardiyeva kabilarning tadqiqotlarida ijtimoiy moslashuvning pedagogik jihatlari yoritib berilgan.

Biroq pedagogika kolleji o'quvchilarini ijtimoiy moslashlashtirish alohida tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmagan. Ana shu sababli biz bitiruv malakaviy ishimiz mavzusini "Pedagogika kolleji o'quvchilarini ijtimoiy moslashtirish texnologiyasi" tarzida tanlashni lozim deb topdik.

Ishning maqsadi – pedagogika kolleji o'quvchilarini ijtimoiy moslashtirishning amaliy-texnologik jihatlari yoritib berish.

Tadqiqotning vazifalari:

1. Pedagogika kolleji o'quvchilarini ijtimoiy moslashtirish muhim pedagogik muammo ekanligini asoslash.
2. Pedagogika kolleji o'quvchilarini ijtimoiy moslashtirish mazmunini yoritib berish.
3. Auditoriya sharoitida pedagogika kolleji o'quvchilarini didaktik moslashtirishning texnologik shart-sharoitlarini aniqlashtirish.
4. Auditoriyadan tashqari jarayonda pedagogika kolleji o'quvchilarini ijtimoiy moslashtirish texnologiyasini loyihalash.

Tadqiqot ob'ekti: pedagogika kolleji o'quvchilarini ijtimoiy moslashtirish jarayoni.

Tadqiqot predmeti – pedagogika kolleji o'quvchilarini ijtimoiy moslashtirish mazmuni, tashkiliy-texnologik jihatlari.

Tadqiqot metodlari: analiz, sintez, so'rovnoma, anketa, suhbat, kuzatish, pedagogik eksperiment.

Tadqiqotning metodologik asosi: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, yuksak intellayektual salohiyatli kadrlarni tayyorlashga doir konseptual qarashlari, shaxs ijtimoiylashuvi qonuniyatlari, ijtimoiy moslashuvga doir nazariyalar, shuningdek, ijtimoiy-falsafiy, sotsiologik, pedagogik va psixologik yo'nalishlarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda ilgari surilgan g'oyalar tashkil etdi.

Tadqiqotning ilmiy farazi. Agar:

- 1) "ijtimoiylashuv" va "ijtimoiy moslashtirish"ning o'zaro aloqadorligi o'rtasidagi tavofutlar ajratib ko'rsatilsa;
- 2) pedagogika kolleji o'quvchilarini ijtimoiy moslashtirish omillari aniqlashtirilsa;
- 3) pedagogika kolleji o'quvchilarini didaktik moslashtirishning texnologik shart-sharoitlari yoritib berilsa;

4) auditoriyadan tashqari jarayonda pedagogika kolleji o'quvchilarini ijtimoiy moslashtirish bosqichlari va axboriy ta'minoti tizimga solinsa, mazkur jarayon samarali amalga oshadi.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:

1. Pedagogika kolleji o'quvchilarini ijtimoiy moslashtirish muhim pedagogik muammo ekanligi.

2. Pedagogika kolleji o'quvchilarini ijtimoiy moslashtirish mazmuni.

3. Auditoriya sharoitida pedagogika kolleji o'quvchilarini didaktik moslashtirishning texnologik shart-sharoitlari.

4. Auditoriyadan tashqari jarayonda pedagogika kolleji o'quvchilarini ijtimoiy moslashtirish texnologiyasi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

1. Auditoriya sharoitida pedagogika kolleji o'quvchilarini didaktik moslashtirishning texnologik shart-sharoitlari aniqlashtirildi.

2. Auditoriyadan tashqari jarayonda pedagogika kolleji o'quvchilarini ijtimoiy moslashtirish texnologiyasi loyihalandi.

Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishining nazariy ahamiyati "ijtimoiy moslashuv" tushunchasining falsafiy, psixologik va pedagogik jihatlariga doir yondashuvlarning tizimlashtirilganligi; "ijtimoiy moslashuv" va "ijtimoiylash-tirish"ning o'zaro aloqadorligi va farqli jihatlarini yoritib berilganligi; pedagogika kolleji o'quvchilarini ijtimoiy moslashtirish bosqichlari aniqlashtirilganligi va tizimlashtirilganligi; pedagogika kolleji o'quvchilarini ijtimoiy moslashtirishga ta'sir ko'rsatuvchi majmuaviy omillarning qiyosiy o'rganilganligi kabilarda o'z aksini topgan.

Tadqiqotning auditoriya sharoitida pedagogika kolleji o'quvchilarini didaktik moslashtirishning texnologik shart-sharoitlari hamda auditoriyadan tashqari jarayonda pedagogika kolleji o'quvchilarini ijtimoiy moslashtirish texnologiyasidan pedagogika kollejlari faoliyatida keng foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalaridan pedagogika kolleji o'qituvchilari, metodistlar va yoshlar tashkilotlari yetakchilari foydalanishlari mumkin.

Tajriba-sinov ishlari Navoiy pedagogika va xizmat ko`rsatish kasb-hunar kollejida olib borildi.

Ishning tuzilishi. BMI uch bob, olti paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat.

I-BOB. PEDAGOGIKA KOLLEJI O'QUVCHILARINI IJTIMOIIY MOSLASHTIRISHNING NAZARIY MASALALARI

1.1. Pedagogika kolleji o'quvchilarini ijtimoiy moslashtirish muhim muammo sifatida

Pedagoglik kasbiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar mohiyatidan anglash mumkinki, bo'lajak o'qituvchining o'z kasb sohasida muvafaqqiyatli faoliyat yurita olishining muhim ko'rsatkichi uning ijtimoiylashuv darajasidir. So'nggi yillarda respublikamizda bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashuvi bilan bog'liqlikda M.Quronov, N.Muslimov, D.X.Nasriddinova, Sh.N.Majitova, F.R.Yuzlikayev, N.M.Egamberdiyeva, N.G.Ismatova, Z.T.Saliyeva, G.Q.Mardiyeva kabi olimlar tomonidan qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari tahlilidan shu narsa ma'lum bo'ladiki, pedagogika kolleji o'quvchilarining ijtimoiylashuvini ta'minlashda ijtimoiylashuv va moslashuvning o'zaro aloqadorligi, bo'lajak o'qituvchilarning muvafaqqiyatli ijtimoiy moslashuvini ta'minlashning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

O'z navbatida ijtimoiy moslashuv masalasi ham ilmiy adabiyotlarda turli jihatdan talqin etilgan: ijtimoiy moslashuv hodisasining mohiyatini aniqlash; ijtimoiy moslashuvning xilma-xil qirralarini talqin etish.

Moslashuv (adaptatsiya) tushunchasi (lotincha adaptation-moslashish) ilmiy muomalaga dastlab nemis fiziologi X.Aubert tomonidan XIX asrning ikkinchi yarmida (1865 yil) a'zolarining tashqi muhit o'zgarishlariga moslashishini tavsiflash uchun qo'llanilgan. Fiziologiyada keng qo'llanilgach moslashuv xususiy ilmiy tushuncha sifatida qolsada, biologiyaning boshqa sohalarida ham qo'llangan. XX asrning o'rtalaridagina moslashuv atamasi tibbiyot, kibernetika, psixologiya va boshqa fanlarda qo'llandi va hozirda umumilmiy tavsifga egadir. Moslashuv hodisasining ko'plab ta'riflari mavjud:

Moslashuv (adaptatsiya) – jonli sistemalarning tashqi muhit bilan munosabatida sodir bo'ladigan moslashuv jarayoni – adaptogenezning ma'lum natijasi (Falsafa: ensiklopedik lug'at)³.

Moslashuv – tabiat yoki jamiyat hayotida, insonning ma'naviy-ruhiy olamida kechadigan o'ziga xos jarayon bo'lib, biron-bir muhit yoki sharoitga, yangilikka moslashuvni anglatadi (Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati)⁴.

Moslashuv – organizmning mavjud sharoitlarga muvafaqiyatli javob qaytara olishidir. Moslashuvning biologik, fiziologik va ijtimoiy-psixologik turlari mavjud. Biologik moslashuv deganda hayvonot va o'simlik turlarining tashqi muhitning aniq mavjud sharoitlariga morfofiziologik ko'nikishi tushuniladi. Fiziologik moslashuv esa o'zida asosida organizmning atrof-muhit o'zgarishlariga moslashishga qodirligi turadigan fiziologik reaksiyalar yig'indisi tushuniladi. Ijtimoiy-psixologik moslashuv shaxsning ijtimoiy muhitda o'z o'rnini topa olishiga qodirligidir (Pedagogik ensiklopedik lug'at)⁵.

Moslashuv – sub'ektni muhit talablariga (moslashuv ob'ekti) optimal mos kelishini ta'minlashdir. Stabillik buzilishida (sub'ektning boshqa muhitga ko'chishi, muxitning o'zini o'zgarishi) tizimdagi ob'ekt va sub'ektlar orasida o'zaro ta'sir izdan chiqishi vujudga keladi. Bu esa funksional buzilish, yaxlitlikning yo'qolishiga olib keladi. Natijada shunday moslashuv vaziyati paydo bo'ladiki, unda tizim yoki uning ayrim elementlari yo'qotilgan muvozanatni tiklashga intiladi. Bunday vaziyat individning yangi tabiiy yoki ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'siri natijasida paydo bo'lgan ziddiyatlarni hal etishning faol, maqsadga yo'naltirilgan jarayoni sifatida baxolanadigan inson moslashuvining barcha turlariga xos (J.G.Senokosova)⁶.

³ Falsafa: ensiklopedik lug'at. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. – B.9.

⁴ Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. – B.15.

⁵ Педагогический энциклопедический словарь. – М.: Большая Российская энциклопедия, 2002. – С.11-12.

⁶ Павленко Н.Ю. Адаптация студентов к учебному процессу в вузе в условиях инновационного обучения //Методика вузовского преподавания: Тез.конф. Челябинск: ЧГПУ, 1999. – С. 19-21.

Moslashuv tushunchasi ostida odam va muhitning o'zaro ta'siri jarayoni tushuniladi, uning natijasida insonda shu muhit sharoitlariga nisbatan adekvat o'zgaradigan xulq-atvor modellari va strategiyalari hosil bo'ladi (V.Ya.Yakunin)⁷.

Moslashuv – bu organizmning tashqi muhit bilan adekvat aloqalarining shakllanish xususiyati. Shuningdek, moslashuv bu organizm faoliyatini tashqi muhit ehtiyojlariga qarab o'zgartirish qobiliyati hamdir (N.M.Egamberdiyeva)⁸.

Moslashuv – ijtimoiy-psixologik jarayon bo'lib, ichki va tashqi nizolarga qarama-qarshi o'laroq insonning o'z faoliyatini muvafaqqiyatli amalga oshira olishi, o'z faoliyati natijalaridan qoniqish hosil qilishi (D.V.Ryazanova)⁹.

Moslashuv – bu insonning tabiiy va ijtimoiy muhit bilan o'zaro birgalikdagi harakatini tavsiflovchi yaxlit, tizimli jarayon (N.Ismatova)¹⁰.

Moslashuv – o'zgaruvchan ta'limiy muhitda o'zini namoyon eta olish uchun shaxsning yangi shart-sharoitlarni muvafaqqiyatli o'zlashtirishi, mavjud sharoitga mos maqomni egallash (G.Mardiyeva)¹¹.

Moslashuv tushunchasini ta'riflashga yondashuvlar mazmunidan shunday xulosaga kelish mumkin. Moslashuv jarayoni:

1) bir tomondan individ va ikkinchi tomondan, muhit ehtiyojlarining to'liq qondirilishi jarayoni. Bu individ va tabiat yoki ijtimoiy muhit orasidagi o'zaro uyg'unlik holati;

2) individ va tabiat yoki ijtimoiy muhit orasidagi o'zaro uyg'unlikning vujudga kelishi uchun vosita bo'lib xizmat qiladigan jarayon.

Pedagogika kolleji o'quvchilarini ijtimoiy moslashtirish muhim muammo ekanligini asoslash haqida gap borar ekan, mazkur holatda “ijtimoiy moslashtirish” tushunchasining pedagogik talqinini ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aksariyat tadqiqotlarda moslashuvning o'ziga xos turi sifatida “ijtimoiy-psixologik moslashuv”ga alohida e'tibor qaratilib, faqat uning psixologik jihatlarini yoritib berish bilan cheklaniladi. Bizningcha, ijtimoiylashuv inson o'zini

⁷ Петропавловская С.М. Социально-педагогическая адаптация учащихся профессионального лица: автореферат дис. ... канд. пед. наук. Институт развития профессионального образования Министерства образования РФ. М., 2003. – 22 с.

⁸ Эгамбердиева Н. Ижтимоий педагогика. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009.

⁹ Рязанова Д.В. Социальная адаптация школьников: Дисс. ... канд.пед.наук. – М., 1995.

¹⁰ Исмадова Н.Г. Управление процессом профессиональной адаптации молодых педагогов средней школы. Дисс. ...канд.пед.наук. – Т., 2011.

¹¹ Мардиева Г.К. Педагогика коллежи талабаларини ижтимоий мослаштириш технологияси. – Т.: “Fan va texnologiya” нашриёти, 2012.

jamiyatda shaxs sifatida anglab borishi jarayoni ekan, bu tarbiya, ta'lim, o'z-o'zini tarbiyalash jarayonida yuzaga kelib, inson qachonki, o'z maqsadlarini mustaqil aniqlay olsa va ularga erishish yo'llarini belgilay olganida, o'z qadr-qimmatini anglab yetganida, jamiyatdagi o'z o'rniga ishonch hosil qilgan taqdirda amalga oshadi. Pedagogika fanlari doktori N.M.Egamberdiyeva ta'kidlab o'tganidek, shaxsning ijtimoiylashuvi – ta'lim-tarbiya ta'sirida inson psixologik funksiyalarining takomillashuvi, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar, xulq-atvor me'yor va qoidalarining o'zlashtirilishi, dunyoqarashining boyish jarayoni va natijasi. Xulosa qilib aytganda, moslashuv, shu jumladan ijtimoiy moslashuvga aniq maqsadga qaratilgan pedagogik ta'sir ko'rsatish natijasi sifatida qarash maqsadga muvofiqdir¹².

Shuningdek, ba'zi olimlar “ijtimoiylashuv” va “ijtimoiy moslashuv” tushunchasini alohida-alohida talqin qilishga harakat qilishsa, ba'zilar ularni bir tushuncha sifatida baholashadi.

Birinchi guruh nazariyasi tarafdorlarining fikricha, ijtimoiylashuv ijtimoiy me'yor, xulq-atvor tamoyillari va qadriyatlarni uzatish va uni inson tomonidan egallanishiga qaratilgan murakkab jarayon bo'lib, u alohida shaxsga ma'lum bir jamiyat fuqarosi sifatida o'zini namoyon etish imkoniyatini beradi. Ijtimoiy moslashuv esa, shaxsga jamiyat tomonidan berilgan mazkur imkoniyatlarni amalga oshirilish jarayonini o'zida ifoda etadi. Ijtimoiy moslashuv jarayonida alohida shaxsning xulq-atvor me'yori va qadriyatlarining u mansub bo'lgan ijtimoiy guruh qadriyatlari bilan o'zaro mos bo'lishi ta'minlanadi.

Ikkinchi guruh olimlarning fikricha, insonning aniq bir jamiyat sharoitlariga moslashuvi yoki undan ajralib chiqishi (individuallashuvi) ijtimoiylashuv jarayonining mazmunini tashkil qiladi. Moslashish sub'ekt va ijtimoiy muhitning o'zaro faol yaqinlashuv jarayoni va natijasidir. Individuallashuv insonning ob'ektiv ehtiyojlar bilan bog'liq holda jamiyatda ma'lum darajada alohidalikka intilishi bo'lib, uning yoshligidanoq o'z-o'zini namoyon qilishga bo'lgan harakatlarida paydo bo'ladi.

¹² Эгамбердиева Н. Ижтимоий педагогика. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. – Б.124.

G.Q.Mardiyevaning fikricha, “ijtimoiylashuv” va “ijtimoiy moslashuv” tushunchalariga bunday tarzda yondashish o‘rinli emas. Chunki aynan ijtimoiy moslashuv ijtimoiylashuv jarayonining tezlashuvi yoki sekinlashuviga o‘zining aniq ta‘sirini ko‘rsatadi. Shaxsning yangi jamoaga qo‘shilishida nizolarsiz moslashuvi uning muvafaqiyatli ijtimoiylashuvini tezlashuviga imkon beradi¹³.

I.Korobeynikov ta‘kidlab o‘tganidek, “ijtimoiylashuv” va “ijtimoiy moslashuv” jarayoni o‘rtasidagi mustahkam aloqadorlikni ta‘minlaydigan integrallashgan ob‘ekt – ta‘lim oluvchi (pedagogika kolleji o‘quvchisi – ta‘kid bizniki) shaxsi. Olimning fikricha, ijtimoiy moslashuv shaxsning ijtimoiy xulq-atvorini shakllantirishning murakkab mexanizmi sifatida sodir bo‘ladi va ijtimoiylashuvning sifat tavsifi sifatida namoyon bo‘ladi¹⁴.

Bizning tadqiqotimizda moslashuv jarayoni pedagogika kolleji o‘quvchisining yangi ta‘limiy muhitga ijtimoiylashuvining tarkibiy qismi sifatida muhokama ob‘ekti tarzida qabul qilinadi. Ijtimoiy moslashuv ijtimoiylashuv mexanizmlaridan biri sifatida, yuzaga keladigan qiyinchilik va muammoli vaziyatlarni bartaraf etish esa yangi ijtimoiy tajriba – o‘quvchilik maqomini o‘zlashtirish mexanizmi sifatida tadqiq etiladi.

Moslashuvga ehtiyoj shaxsda ma‘lum bir tizim bilan kelishmovchilik sharoitidagi o‘zaro ta‘sir holatida paydo bo‘ladi, bu esa o‘z navbatida o‘zgarishlarni talab etadi. Bu o‘zgarishlar shaxsning o‘z-o‘zi yoki tizim bilan, bundan tashqari ular o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir tavsifi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ya‘ni, shaxsning ijtimoiy moslashuvining boshlang‘ich nuqtasi bo‘lib tashqi muhitning o‘zgarishi bilan avvalgi xulq-atvor samarasiz yoki kam samarali bo‘lib qolishi natijasida aynan yangiliklar bilan bog‘liq bo‘lgan qiyinchiliklarni yengishga nisbatan paydo bo‘luvchi zarurat xizmat qiladi.

Ijtimoiy moslashuv kollej o‘quvchisi maqomiga muvofiq ta‘lim oluvchilarni ijtimoiy muhit tomonidan qo‘yiladigan va kutiladigan talablarni qabul qilish hamda ularga samarali javob qaytarishi bilan tavsiflanadi. Boshqacha aytganda,

¹³ Мардиева Г.К. Педагогика коллежи талабаларини ижтимоий мослаштириш технологияси. – Т.: “Fan va texnologiya” nashriёти, 2012. – Б.10.

¹⁴ Хайитов О., Умарова Н. Ёшларда профессионал ўсишга интилишни ривожлантиришнинг назарий-амалий асослари. – Т.: “TURON-IQBOL”, 2011.

moslashuvchan xulq-atvor qarorlarini muvafaqqiyatli qabul qilish, tashabbus bildirish va o'zining kelajagi bilan bog'liq bo'lgan aniq tasavvurlarga ega bo'lish bilan bog'liqdir. Ana shu asosdan kelib chiqqan holda, samarali ijtimoiylashuv belgilariga quyidagilarni kiritish mumkin: 1) ijtimoiy faoliyat sohasida moslashganlik, mazkur holatda shaxs bilim, ko'nikma va malakalarni egallash orqali umummalakaviy va umumkasbiy kompetentlikka erishadi; 2) shaxslararo munosabat sohasida moslashganlik, boshqa kishilar bilan chuqur emotsional aloqalarni o'rnatish jarayonlari, muvafaqqiyatli ijtimoiy moslashuv uchun zarur inson xulq-atvori motivlari, shaxs sifati va xarakteri, xulq-avtor tizimi yig'indisi.

Pedagogika kolleji o'quvchilarida ta'lim muassasasi sharoitiga ijtimoiy moslashtirish haqida gap borganda esa, quyidagi jihatlarni alohida ko'rsatib o'tish lozim:

1) pedagogika kolleji o'quvchilarida ijtimoiy moslashuv jarayonining kechishi murakkab dinamiklikka ega bo'lib, ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega qadriyatli tasavvurlarni o'zaro uyg'unlashuvini talab etadi;

2) pedagogika kolleji o'quvchilari uchun kollejda o'qishning birinchi va ayrim hollarda ikkinchi yili murakkab vaziyatlar bilan birga kechadi;

3) pedagogika kollejida tahsil olish jarayonida o'quvchilarda o'z-o'zini anglash tuyg'usi rivojlanadi, atrof-olam va borliqqa doir qadriyatli munosabatlar tizimining rivojlanishi davom etadi;

4) o'quvchilarda bazaviy o'quv ustanovkalari shakllanadi;

5) o'quvchilik yillari tashkiliy, metodik, psixologik tavsifga ega bo'lib, shaxsning shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashuvining eng muhim bosqichidir.

1.2. Pedagogika kolleji o'quvchilarini ijtimoiy moslashtirish mazmuni

Pedagogika kolleji o'quvchilarining ta'lim muassasasiga ijtimoiy moslashuvi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularni o'qitishning o'rta maxsus ta'lim tizimiga kirib kelishi, yangi – bo'lajak kichik mutaxassis maqomiga ega bo'lishi ularda mana shu maqomga iloji boricha ko'proq muvofiq kelish uchun

unga mos xulq-atvor shakllarini tarkib toptirishni talab qiladi. Mazkur jarayon uzoq muddat davom etish tavsifiga ega bo'lib, bu esa ta'lim oluvchi shaxsida turli psixologik va fiziologik darajadagi zo'riqishlarni yuzaga keltirishi mumkin, natijada o'quvchining faolligi susayadi va o'quvchi nafaqat yangi xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtira olmaydi, balki kundalik faoliyatni ham muvafaqqiyatli amalga oshira olmay qoladi.

Pedagogika kollejidagi ijtimoiy moslashuvning o'ziga xosligi ayniqsa, o'qitishning umumiy o'rta ta'limi hamda kollejdagi shakl, metod va usullari orasidagi tafovut natijasida vujudga keluvchi didaktik to'siqning mavjudligida yaqqol namoyon bo'ladi. To'qqiz yillik majburiy ta'limdan kasbiy ta'lim sharoitiga moslashish o'quvchidan aniq psixologik-pedagogik yo'nalganlikni talab qiladi.

Ma'lumki, kollej ta'limiga a ijtimoiy moslashuv murakkab, ko'p qirrali xodisa bo'lib, ta'lim olishni ikkinchi bosqichining oxirida yakunlanadi. Mazkur jarayonda o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvi o'zida ikkita muhim jihatni aks ettiradi: 1) kasbiy faoliyat sohasiga moslashuv: o'quv faoliyatining tashkil etilishi, mazmuni, shart-sharoitlariga moslashish, o'quv-ilmiy faoliyatda mustaqillik ko'nikmasini shakllantirish; 2) ijtimoiy-psixologik moslashuv: o'quvchining ijtimoiy guruhga, undagi o'zaro munosabatlarga moslashishi, o'zining shaxsiy xulq-atvor uslubini yaratish.

Pedagogika kolleji o'quvchilarining ijtimoiy moslashuviga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni esa, uch guruhga ajratish mumkin: ijtimoiy, psixologik, pedagogik.

Ijtimoiy omillarga o'quvchining yoshi, uning ijtimoiy kelib chiqishi, ta'limning avvalgi bosqichida tugallagan o'quv muassasasining turi kiradi. Psixologik omillar o'z ichiga ham individual-psixologik, ham ijtimoiy-psixologik omillarni qamrab oladi: intellekt, yo'nalganlik (oriyentatsiya), shaxsiy salohiyat, guruhda o'z o'rniga egalik. Ijtimoiy moslashuvga ta'sir ko'rsatuvchi pedagogik omillarga pedagogika kolleji o'qituvchilarining pedagogik mahorat darajasi,

kolleжда ijobiy-emotsional muhitning tashkil etilganligi, axboriy-metodik ta'minlanganlik kabilarni kiritish mumkin.

Muvafaqqiyatli ijtimoiy moslashuv uchun ham o'qituvchi, ham o'quvchi tomonidan maqbul faoliyat yo'nalishi, ya'ni birgalikdagi samarali faoliyat yo'lga qo'yilishini talab etiladi. O'quvchi o'zi uchun u yoki bu ta'limiy maqsadga erishish yo'llarini izlashi va tanlay olishi kerak, o'qituvchidan esa mazkur holatda fasilitator (qo'llab-quvvatlovchi) vazifasini bajarish talab etiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvi eng yuqori darajasini bir paytning o'zida ham muhitni, ham o'z- o'zini o'zgartirishga qaratilgan strategiyalar ta'minlaydi. Ijtimoiy moslashuvning me'yoriy natijasi sifatida shaxsdagi ichki o'zgarishlarni talab qilmaydigan ta'lim sub'ektining ta'lim muassasasiga moslashishi, shuningdek, xulq-atvorning muqobil modellari(muhitni tark etish yoki yangi shaxsiy o'zgarishlarni qabul qilish)dan biri yuzaga keladi. Ijtimoiy moslashuvning yaqqol ifodalangan salbiy samaradorlikka ega past darajasi sub'ektning tashqi muhit bilan o'zaro ta'sirga kirishdan bosh tortishi va o'z ichki dunyosiga g'arq bo'lishida namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, o'quvchining xulq-atvori ijtimoiy dezadaptatsiya ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Bugungi kungacha ta'lim oluvchilarni ijtimoiy moslashtirishga doir qator modellar ishlab chiqilgan. Jumladan, D.V.Kolesov tomonidan ishlab chiqilgan moslashuv jarayonining bosqichli modeli o'z ichiga quyidagi tarkibiy qismlarni qamrab olgan:

1) muvozanatlashish – individ va muhit o'rtasida o'zaro qadriyatlar tizimi va xulq-atvor me'yorlariga nisbatan hurmat ko'rinishidagi muvozanatning vujudga kelishi;

2) soxta adaptatsiya – sharoitga tashqi moslashuv va uning me'yorlariga nisbatan salbiy munosabat birligi;

3) ko'nikish – yangi muhitning qadriyatlarini tan olish va qabul qilish;

4) o'xshatish – individning psixik qayta oriyentatsiyasi, avvalgi qarashlar, oriyentatsiya, ustanovkalar transformatsiyasi¹⁵.

Mazkur model shartli ko'rinishga ega bo'lib, bunda tasvirlangan moslashuv davrlari bir paytda amalga oshishi yoki bir-birining o'rnini to'ldirishi mumkin.

E.V.Osipchukova birinchi kurs o'quvchisi shaxsi va o'quvchi tahsil oladigan guruhning yangi ijtimoiy madaniy muhitga moslashuv jarayonini quyidagi bosqichlarga bo'ladi:

1) boshlang'ich davr: unda individ, guruh mavjud ijtimoiy muhitda o'zlarini qanday tutishlari kerakligini biladilar, ammo yangi ijtimoiy muhitning qadriyatlar tizimini tan olishga hali tayyor emaslar, shuning uchun ular avvalgi qadriyatlar tizimini saqlab qolishga harakat qiladilar;

2) ko'nikish davri, bunda individ, guruh, muhitning yangi qadriyatlar tizimi, xulq-atvor andozalariga o'zaro sabr va chidam bilan munosabatda bo'lish sodir bo'ladi;

3) akkomadatsiya, ya'ni individ tomonidan mavjud muhitga doir qadriyatlar tizimining asosiy elementlarini tan olish va qabul qilish va ayni paytda guruh, ijtimoiy muhit tomonidan individning ayrim qadriyatlarini tan olinishi davridir;

4) assimilyatsiya, ya'ni individ, guruh hamda muhit qadriyatlar tizimining o'zaro muvofiqligi¹⁶.

L.M.Luzina esa, moslashuvchan xulq-atvorning quyidagi strategiyalarini ishlab chiqqan:

- 1) muhitdagi mavjud qadriyatlar tizimini faol o'zlashtirish;
- 2) o'z-o'zini o'zgartirish;
- 3) muhitdan chiqib ketish va yangisini izlash;
- 4) muhit bilan aloqani uzish va o'z ichki dunyosiga g'arq bo'lish;
- 5) o'zining passiv reprezentatsiyasi;
- 6) muhitning shartlariga sust holda ko'nikish;
- 7) tashqi o'zgarishlarni sust holda kutish;

¹⁵ Шепилова Н.А. Социально-педагогическая адаптация студентов вуза в процессе формирования их ценностного отношения к педагогической профессии: автореферат дис. ... канд. пед. наук. Магнитог. гос. ун-т. Магнитогорск, 2003.

¹⁶ Тарантей В.П. Социально-педагогические проблемы профессионального становления молодых учителей в современных условиях: Дис. ... докт. пед. наук в виде научного доклада. – СПб., 1994.

8) ichki o'zgarishlarni sust holda kutish¹⁷.

N.G.Ismatova esa, kasbiy moslashuv nuqtai nazaridan moslashuv mazmunini uch nuqtai nazardan ko'rib chiqishni taklif etadi:

1) fiziologik: organlar va tizimlarning funksiyasi; endokrin regulyatsiya; nerv regulyatsiyasi;

2) ijtimoiy-psixologik moslashuv: yangi psixologik xulq-atvor me'yorlarining shakllanishi; qo'yilgan talab bilan bog'liqlikda shaxsiy sifatlarni korreksiyalash; yangi ijtimoiy muhitni o'zlashtirish;

3) kasbiy: mehnatning yangi sharoitlariga; pedagogik kasbiga; bilimlari va pedagogik mahoratini doimiy takomillashtirib borishga odatlanish¹⁸.

G.Q.Mardiyeva o'quvchilarni pedagogika kollejiga ijtimoiy moslashtirishning quyidagi faoliyatli modelini ishlab chiqqan:

1) shaxslararo ta'sir bosqichi. O'quvchining bu bosqichdagi moslashuvining muvaffaqiyatli kechishi uning, eng avvalo, akademik guruhga xos qadriyatlar va xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirishi bilan bog'liqdir;

2) fakultetlararo ta'sir bosqichi. Bu bosqichdagi moslashuv fakultetdagi mavjud qadriyatlar tizimini, fakultet ma'muriyati, o'quvchi-professorlar bilan o'zaro muloqot usullarini qabul qilish yoki qilmaslik bilan bog'liq;

3) kolleji (OTM) bilan o'zaro ta'sir bosqichi. Bu bosqichda o'quvchi pedagogika kollejiga xos qadriyatlar, me'yorlarni o'zlashtiradi, o'zini pedagogik kolleji bilan identifikatsiyalashtiradi yoki identifikatsiyalashtirmaydi;

4) kasbiy-qadriyatli bosqich. Bunda o'quvchining pedagogik qadriyatlarni o'zlashtirishi va interiorizatsiyalashuvi amalga oshadi¹⁹.

Yuqoridagi modellarni o'rganish va tahlil etish asosida biz pedagogika kolleji ijtimoiy moslashuvini quyidagi umumlashgan uch darajasini aniqladik:

¹⁷ Лузина Л.М. Философски-антропологический подход в современной методологии воспитания: Дис. ... докт. пед. наук в виде научного доклада. – СПб., 1998.

¹⁸ Исмагова Н.Г. Управление процессом профессиональной адаптации молодых педагогов средней школы. Дисс. ... канд. пед. наук. – Т., 2011.

¹⁹ Мардиева Г.К. Педагогика коллежи талабаларини ижтимоий мослаштириш технологияси. – Т.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2012. – Б.18-19.

1) mutlaq moslashuv. Kolleji qadriyat va me'yorlarini, maqsad va vazifalarini to'liq qabul qilish, ta'limiy faoliyat qoidalariga bo'ysunishga tayyorlik. Bunday o'quvchilar o'quvchilar jamoasining negizini tashkil etadilar.

2) mimikriya. Ta'lim maqsadi va vazifalarini, asosiy qoidalarini qabul qilmagan holda ikkinchi darajali qoidalarga bo'ysunish. Moslashuvning bunday turi xavotir guruhiga xos, bu guruhga kiruvchilar pedagogik kollejini tark etishga tayyor turadigan o'quvchilardir;

3) adaptiv individualizm. Asosiy me'yor va qadriyatlarni qabul qilgan holda, ikkinchi darajali qoidalarga bo'ysunmaslik bilan tavsiflanadi.

Maxsus psixologik, pedagogik adabiyotlar tahlili va taqiqotimiz natijalaridan ma'lum bo'ladiki, pedagogika kolleji o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvi jarayonining asosiy negizini o'quvchilarning guruh hosil qilish faoliyati tashkil etadi.

Guruh hosil qiluvchi asosiy kuch sifatida insonning o'z ehtiyoj va qiziqishlarini qondirish maqsadida hamkorlikka intilishi namoyon bo'ladi. Qoniqtirilmagan ehtiyoj, shaxsni diskomfort (noqulaay) vaziyatga solib, insonning faolligini motivlaydi, u o'z navbatida, maqsad belgilashda ko'rinadi va maqsad yo'lida ma'lum harakatlarni talab qiladi. Shunga ko'ra, guruh hosil qilish faoliyati akademguruhda shaxslararo munosabatlar va o'zaro hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan, guruhning o'z tarkibidagi o'quvchilarning ehtiyoj va qiziqishlarini qondira olish, pirovardida tarqoqlikka qarshi tura olish qobiliyatida namoyon bo'ladigan faoliyat sifatida ta'riflanadi.

Guruh hosil qilish faoliyatining asosiy shartlariga guruh yaxlitligining quyidagi tavsiflarini kiritish mumkin: akademguruh a'zolari qiziqishlarining umumiy yo'nalishlarini mavjudigi; rasmiy va norasmiy faoliyatning tashkil qilingani va ishchanlik muhitiga mosligi; motivatsion (motivatsiya nuqtai nazaridan yaxlitlik) va qadriyatli yo'nalganlikning o'zaro mosligi.

Ijtimoiy moslashuv nuqtai nazaridan guruh hosil qilishning quyidagi darajalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Rivojlanishning birinchi darajasida guruh hosil qilish faoliyati guruhning o'zaro muloqot jarayonining jadalligida namoyon bo'ladi. O'quvchilarning emotsional-axloqiy va informatsion nuqtai nazardan hamkorligi guruh hosil qilish faoliyati sharti sifatida ehtiyoj va qiziqishlarning umumiyligi kabi vazifalarni bajaradi. Bu shartlar o'quvchilarning shaxslararo o'zaro munosabatlardagi uyg'unligini belgilaydi. Biroq mazkur holat guruh integratsiyasining to'liq namoyon bo'lishiga imkon bermaydi.

2. Yuqori tartibdagi guruh hosil qilish faoliyati shartlari o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bilan bog'liq bo'lib, ularga rasmiy va norasmiy faoliyatning tashkil qilingani va ishchanlik muhitiga mosligi; guruh a'zolari harakatlarining yaxlitligini belgilaydigan motivatsion yo'nalganlik xosdir.

3. Guruh hosil qilish faoliyati oliy darajasi maqsadli-motivatsion, tashkiliy va qadriyatga yo'naltirilgan o'zaro birgalikdagi faoliyati bilan bog'liqdir.

Shunday qilib, guruh hosil qilish faoliyatining umumiy shartlari tuzilishiga ko'ra uch darajali bo'lib, bu akademguruh hal qilishi kerak bo'lgan vazifalarning kommunikativ, tashkiliy-ishchanlik, qadriyatli yo'nalganligi bilan tavsiflanadi.

Tahlil natijalariga muvofiq tarzda pedagogika kolleji o'quvchilarini ijtimoiy moslashtirish mazmuni o'zaro bir-biri bilan bog'liq uchta blokni o'z ichiga qamrab oladi:

1. Moslashtirishning birinchi bosqichini amalga oshirish kommunikativ faoliyati metodlari orqali ta'minlanadi, ular o'quvchilarga umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalaridagi o'zaro hamkorlik tizimi o'zgarganligi sababli yuzaga kelgan muloqot va ijtimoiy maqomga ehtiyojni qondirish imkonini beradi. Bosqich boshida yaxlit guruhda o'zaro hamkorlik tizimini jadallashtirishga imkon beradigan metodlardan foydalanilsa, bosqich so'nggiga kelib, akadem guruhning kichik guruhlari funksional o'zaro hamkorligini ta'minlaydigan metodlardan foydalaniladi.

Birinchi bosqich o'quvchilarni kichik guruhlarda ishlashlarini faollashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib beradi.

2. Moslashtirishning ikkinchi bosqichida guruhda ishlashning o'zaro birgalikdagi faoliyatini yo'lga qo'yishga doir metodlaridan foydalanish o'quvchilarning ishini ularning individual ehtiyoj va qiziqishlariga muvofiq faollashtirish, yakka tartibdagi faoliyat natijaviyligini yaxshilash imkonini beradi. Bundan tashqari, guruh ichida funksional o'zaro hamkorlikni tashkil qilish jarayonida o'quvchi kolleji hayotiy faoliyatiga faol kirishadi, ularda sodir bo'layotgan voqea-hodisa va jarayonlarga individual daxldorlik hissi shakllanadi.

3. Moslashtirishning uchinchi bosqichi esa qadriyatga yo'nalgan faoliyat metodlaridan foydalanishni shart qilib qo'yadi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarda mavjud tajriba mazmunini yuqori darajada anglab yetish imkonini beradi.

II-BOB. PEDAGOGIKA KOLLEJI O'QUVCHILARINI IJTIMOIIY MOSLASHTIRISHNING AMALIY-TEXNOLOGIK JIHLTLARI

2.1. Auditoriya sharoitida pedagogika kolleji o'quvchilarini ijtimoiy moslashtirishning texnologik shart-sharoitlari

Pedagogika kollejida o'qishni boshlaganda, birinchi kurs o'quvchilarida mavjud bo'ladigan ijtimoiy moslashuv omillari orasida didaktik qiyinchiliklarni bartaraf etish muhim ahamiyatga egadir. Didaktik qiyinchiliklar quyidagi jihatlarda o'z aksini topadi: 1) o'quv materialini mazmuni va hajmining sezilarli o'zgarishi (bitta ma'ruzada besh-oltita maktab darsidagi axborot jamlangan); 2) o'qitishning yangi (maktab, bilan solishtirganda) shakl va metodlari (ma'ruza, seminar, kollokvium, munozara va boshqalar); 3) ilmiy matn va ma'ruza materialini tilining murakkabligi; 4) mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarining yetishmasligi.

Birinchi kurs o'quvchilarini didaktik jihatdan muvaffaqiyatli moslashtirish qator shartlarni realizatsiyalashni ko'zda tutadi: 1) o'qituvchining o'quvchilarga nisbatan nuqtai nazarini o'zgartirish. Buningiz ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi. Birinchi kurs o'quvchilarining moslashishida "inqiroz"lar muammosini to'g'ri anglagan, ularning didaktik va kasbiy moslagashganligini tadqiq qilish natijalari, ularning ijtimoiy moslashuvi va dezadaptatsiyasi omillaridan xabardor o'qituvchi ta'lim jarayoni muvaffaqiyatiga ko'maklashadigan o'qitish metod va vositalarini, ular avvalgi tajribasida qanday o'rin tutganidan qat'i nazar afzal biladi.

2) fan o'qituvchilari bilan yakka tartibda ishlash. Mazkur ish shakli birinchi kurs o'quvchilarining o'qituvchilarga ijtimoiy-psixologik moslashuvi xususiyatlarini va har bir pedagogning birinchi kurs guruhlariga moslashuvining o'ziga xosliklarini tadqiq qilish asosida quriladi. Buning uchun kuzatish, tashxis kartalari bilan o'quv mashg'ulotlariga muntazam kirish tashkil qilinadi. Bu o'quvchi va o'qituvchilarning moslashuv davridagi qiyinchiliklari sabablarini aniqlash, ularni zarur vositalar bilan qurollantirish, kamchiliklarni bartaraf etish mexanizmlari amal qilishi uchun sharoit yaratish imkonini beradi.

3) fan o'qituvchisining ilmiy-tadqiqot ishlari. O'qishning birinchi oyi – sentyabr mobaynida moslashishning tashxis, refleksiya, bashoratlash, ilmiy-metodik va o'rgatuvchi funksiyalari amalga oshiriladi. Mazkur jarayonda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi: a) birinchi kurs o'quvchilarining individual xususiyatlarini amaliy psixolog, guruh murabbiyi va fan o'qituvchisi tomonidan o'rganish; b) o'quvchilarda oliy ta'limining dastlabki va keyingi davridagi qiyinchiliklarni yengishga tayyorlikni shakllantirish; v) o'quvchilarning didaktik moslashishi, o'qituvchilar bilan o'zaro munosabatlarida emotsional inqirozni yengillashtirish uchun trening elementlari bilan uyg'unlashgan birgalikdagi faoliyatni tashkil qilish; g) moslashish jarayoni va natijalarini bashoratlash.

O'quvchilarni pedagogika kollejidagi o'qitish jarayoniga moslashtirish bosqichma-bosqich amalga oshirilib, mazkur ish o'quvchilar faoliyatini to'g'ri rejalashtirish, oliy ta'lim uchun xos mutolaa va yozish qoidalarini o'zlashtirishni talab etadi. Ana shu sababli biz quyida rejalashtirish, mutolaa va yozish qoidalariga alohida-alohida to'xtalib o'tamiz.

1. Rejalashtirish. Qattiq talab bilan qo'yilgan rejalashtirish ayniqsa, u ijodiy tavsifga ega bo'lsa, aqliy mehnatning asosi bo'lib xizmat qiladi. Fiziologlar aqliy mehnat bilan shug'ullanishda ertalabki vaqtning ma'qulligini uqtirishadi. Yangi materialni esda olib qolish va turli xil mantiqiy xulosalar chiqarish doimo ertalab miya charchamaganida tezroq natijani berishi aniqlangan. Har bir ertalabki ish odatda kechqurungiga nisbatan 2-3marta samaraliroq. Ammo kechqurungi soatlarda ham aqliy ishning samarasi yuqori bo'lishi mumkin. Ayrim insonlar kechqurun ishlashni afzal ko'radilar. Bularning hammasi shakllantirilgan reflekslarga bog'liq.

O'quv mashg'ulotlarining samarali kechishining yana bir sharti, ularga asta-sekinlik bilan kirib borishdir. Tajribali ma'ruzachi doimo o'quvchilarning diqqatini mavzuga safarbar etishdan boshlaydi, u avval iloji boricha osonroq hamda qiziqarli bo'lgan ma'lumotni berib, so'ng qiyinini ma'ruzaning o'rtasida bayon qiladi.

Mustaqil shug'ullaganda doimo avval ishlangan materialni qayta ko'rib chiqishdan boshlab, qiyinroq bo'lgan ma'lumotga 45-60 daqiqadan so'ng o'tilsa

bo'ladi. Istalgan mehnatning yuqori natijali bo'lishi shu ish bilan 2-3 soat vaqt shug'ullanish bilan belgilanadi. Buni doimo yodda tutish kerak: 2-3soatdan ortiq to'xtovsiz ishlash maqsadsiz hisoblanadi. Vaqti-vaqti bilan qisqa to'xtamlar qilib maxsus jismoniy mashqlar va sayr qilish aqliy faoliyat uchun yaxshi rag'bat bo'lib xizmat qiladi, shu bilan birga ko'p vaqt mobaynida natijali ishlashga yordam beradi.

O'quvchilarda imtihon vaqtida ko'p uchraydigan katta hajmdagi aqliy ishni doimo sayr, ko'ngil ochar va sport o'yinlari bilan almashtirish; 1-1,5 soat mashg'ulotlardan chalg'ib turish tavsiya etiladi. Bunday tanaffuslar o'quv materialini qabul qilish darajasini oshiradi.

Ishlash qobiliyatini oshirishda mashg'ulotlarning xilma-xilligi, o'rganilayotgan materialni almashtirish hamda aqliy faoliyat turlari o'rmini o'zgartirib turish katta ahamiyatga ega.

Aqliy ishni bajarishda ma'lum vaqtni bo'lishi ham muhim. Qattiq talabchanlik bilan qo'yilgan ritm miya yarim sharlaridagi qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari uchun yaxshi sharoit yaratishi bilan birga nerv tizimini vazminlashtiradi hamda ishni ma'lum darajada osonlashtiradi. Masalan, yurak butun hayot davomida aynan shu bir xil vaqtda qisqarish natijasida ishlaydi .

2. Mutolaa qilish qoidalari. O'quvchining eshitishi va ma'ruzalarni yozishi bilan birga mashg'ulotning muhim qismi o'quv materialini mustaqil qo'rib chiqishdir. O'quvchi, albatta turli bilimlarga oid bo'lgan taniqli ilmiy kitoblarni o'qish va har kuni bir-ikki soat vaqtini badiiy adabiyotga bag'ishlashi lozim. Bularning hammasi umumiy rivojlanishni kengaytiradi hamda madaniy darajani oshiradi.

Kitobni jiddiy o'qishni o'rgangandan so'ng, daftarga ham xuddi ma'ruzani eshitganday to'liq konspekt qilishni o'rganish foydalibroq. Daftarga muallifning faqatgina asosiy fikrlarini yozib, yordamchilarini, ya'ni sitata, ta'riflarni alohida varaqchalarga yozib, daftar betlari orasiga solib qo'yadigan qilish mumkin. Bunday tizim qo'lda qalam bilan o'qishga o'rgatadi hamda mukammalroq, puxta o'ylangan materialni beradi.

O'quvchi o'rganilgan kitoblarni konspekt qilish texnikasini o'rganmagan paytlarida tushunchalar, savollar, tushunarsiz joylarning ro'yxatini tuzish tavsiya etiladi. Mutolaa qilish tugatilgandan so'ng, reja ro'yxatini tuzish hamda sitatalarni yozib chiqish kerak. SHunday qilib bir sohaga tegishli kitoblarning bir nechtasini shu usulda o'rganib chiqilgandan keyin, normal qoida, jadvallarni tuzmasa ham bo'ladigan sekin o'qishga o'tish mumkin.

O'quvchi yozish, materialni o'zlashtirish ko'nikmalarini o'zida shakllantirganidan so'ng kitobni o'qish vaqtida va undan keyin ham jadval, diagrammalar tuzish, asosiy bilimlarni o'qib, konspekt yozishni o'rganmog'i lozim. Bundan tashqari, metodik mulohazalarni tuzish ham foydali. Aslida kitoblardan qilingan konspektlar katta ahamiyatga ega bo'lmaydi, lekin kitob bilan ishlashning boshlang'ich vaqtida ular zarur hisoblanadi.

Konspektlarni tuzish – o'qishni o'rganishning yagona usulidir. Ammo katta ahamiyatga ega bo'lgan konspekt turlari ham mavjud. Bu kitob materialining haqiqiy konspektidir. Ular kitobxonga sitatalardan ko'ra ko'proq foyda beradi.

Konspektlashtirishning asosiy metodlariga quyidagilar kiradi:

Qoida (tezis) – muallif tomonidan isbotlanadigan yoki inkor etiladigan asosiy fikrlar, g'oya va qonunlarning majmuidir. Qoidalar ichida haqiqiy materiallar bo'lishi shart emas, lekin har bir qoidadan so'ng varoqning pastki chet qismida kitobda keltirilayotgan omillarning qisqa ro'yxati bo'lishi zarur.

Chizma (model) – minimal darajada ishlatilgan so'zlar vositasida berilgan muallifning fikri, g'oyalari tasnifi va isbotidir.

Lug'at – mazkur kitobdagi atama va tushunchalardir. Qoida hamda sxemalardan farqli ravishda terminlarning lug'atini kitobni o'qib bo'lgandan so'ng emas, o'qish mobaynida tuzish kerak, chunki ular materialni o'zlashtirishda foydalanishga kerak bo'ladi. Barcha yangi so'zlar, terminlar, tushunchalar yozilgan bunday lug'at o'qish mobaynida xato qilishdan hamda to'xtalishlardan saqlaydi.

Jadval va diagrammalar – raqamlarni tahlil qilishda o'rnini bosib bo'lmaydigan qo'llanma hisoblanib, mazkur kitob materiallari asosida tuzilgan

bo'ladi, shu bilan birga ular muallif tomonidan keltirilgan turli ma'lumotlarni eslab qolish imkonini oshiradi.

Iqtiboslar – shaxsiy ish, maqola, doklidlarni tuzishda boshqa yozish turlaridan farqli o'laroq ma'lumotnoma hamda bibliografik material sifatiga ega bo'lgan tushunchadir. Iqtiboslarni aniq, to'liq, qo'shtirnoq ichiga olib yozish kerak, shuningdek kitobning muallifi, qaysi bo'lim, nashriyot nomi, kitob chiqqan joyi, yili hamda betlari ko'rsatilishi zarur.

Kitob o'qish mobaynida tushunarsiz va o'quvchi ayrim fikrlarga qo'shilmaydigan joylarni ro'yxatini tuzish foydali. Bunday tarzda ishni tashkil etish o'quvchini kitobga bo'lgan munosabatini belgilaydi.

3. O'rganilayotganlarni qayd qilib borish qoidalari. O'quvchi uchun aqliy mehnat texnikasida eng muhimi – o'rganilayotgan materialni yaxshi yozib olishdir. Yozish ("Yozma xotira") ko'p miqdordagi qoida, fikr, voqea, xulosalarni tezda eslab olib, ulardan mashg'ulot yoki ishlash jarayonida foydalanishga yordam beradi. Eshitilgan va o'qilgan ma'lumotni yaxshi, tizimli qayd qilish o'quvchining nutq madaniyatini oshiradi, kitoblarni o'qish sifatini yaxshilaydi, ma'lumotlarni o'zlashtirishi hamda esda olib qolishini ma'lum darajada osonlashtiradi. Ma'ruza va o'qilgan kitoblarni yozib olish o'quvchi uchun seminar mashg'ulotlari, imtihonlarga tayatlanishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Eshitayotgan, ko'rayotgan hamda o'qiyotganlarni qayd qilib borish aqliy ish texnikasining asosini tashkil etadi.

O'rganilayotganlarni qayd qilib borish o'zida uch asosiy maqsadni ifoda etadi:

- 1) o'zlashtirishni yaxshilash va osonlashtirish;
- 2) kelgusida foydalanish uchun eng muhim va asosiy fikrlarni saqlab qo'yish;
- 3) xotirani ortiqcha zo'riqishlardan ozod etish.

O'rganilayotganlarni qayd qilib borishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratish lozim:

1. Doimo ruchka yoki qalam bilan ishlash va kerakli manbalarni yozib olishga harakat qilish.

2. Yozishning asosiy maqsadi – o'zlashtirish. SHuning uchun imkoni boricha ta'riflardan tashqari, eshitilgan fikrlarni o'z so'zi bilan hamda qisqa yozishga harakat qilish. Yozish mobaynida biror bir qismni tushirib qoldirish qayd qilingan ma'lumotning sifatiga zarar keltiradi. Iloji boricha tushurib qoldirilgan joyda matn bo'lsa shartli belgi qo'yish maqsadga muvofiq. Yozuvlar qanchalik qisqa va ravon bo'lsa, mexanik ko'chirilgan iboralar kam bo'lsa, shunchalik yaxshi.

3. Yozuv texnikasi – unga odatlanishdir. O'quvchi kollejiga kelganida o'qishning dastlabki oylaridan boshlab eshitganlari orasidan hamma muhimlarini yozib olishga o'zini o'rgatib borishi lozim. Doimo yozib olishga tayyor turish kerak, uning yonida bloknot yoki qayd qilish kitobchasi, qalam yoki ruchka bo'lishi lozim.

4. Yozib borish jarayonida materialni tizimlashtirish, nomlarni, ta'riflarni, asosiy fikrlarni, qiziqarli faktlarni va raqamlarni ajratish kerak, shunda qaytarganda yozilgan barcha ma'lumotlarni o'qishga to'g'ri kelmaydi. Buning uchun turli materiallarni rangli qalamlar yoki hoshiyada shartli belgilar qilish qulay hisoblanadi.

5. Yozuvdan foydalanish qulay bo'lishi uchun quyidagilarni bajarish kerak:

- a) biror-bir betni olib tashlash lozim bo'lib qoladigan zaruriyat uchun daftarning tikilgan joyi tomonidan joy qoldirish;
- b) yozuvlar orasida yangi ma'lumotlar uchun toza satr qoldirish;
- c) iqtiboslarni doimo aniq, qo'shtirnoqlar ichiga olib yozish;
- d) o'z fikr va mulohazalarni boshqa rangdagi siyoh yoki qalam bilan, belgi bilan ajratish;
- e) qayd qilish daftarchasida ayrim joylarda toza betlar qoldirish;
- f) doimo ko'z oldida turishi kerak bo'lgan umumiy jadvallarni alohida kartochkalarga yozib, ularni daftarcha ichiga solib qo'yish;
- g) har bir kartochka yuza qismining cheti nusxa nomi, yozilgan manba hamda kartochka joyi raqamini bildirishi;

h) o'z qaydnomalarini tizimlilikiga e'tibor berib, qog'oz kartochka hajmini ham unutmaslik lozim.

6. Yozuvlarni tizimli tarzda olib borish kerak, aks holda undan foydalanish qiyin bo'ladi va u o'z qiymatini yo'qotadi. Faqatgina tizimlashtirilgan yozuvlar o'quvchining fikr yuritish qobiliyatini rivojlantirishi hamda o'quv qo'llanma bo'lib xizmat qilishi mumkin. Turli kitoblardan chuqur o'rganib qilingan konspektlar katta mustaqil qiymatga ega bo'ladi, ayrim hollarda o'qilgan kitoblar qatorida ko'riladi.

Yaxshi qayd qilingan yozuvlar nafaqat o'qish davrida, balki yosh mutaxassisning keyingi faoliyati uchun ham foydali. Qayd qilish tizimini tanlash ishlayotgan kishining individualligi va yozuvlarni belgilashiga bog'liq. Ko'p hollarda ikkita tizimni birgalikda qo'llash mumkin: eng oddiy-daftar yoki qayd etish kitobchasi va kartochkalar. Alohida fanlar uchun daftar hamda qayd qilish kitobchasi bo'lish kerak.

7. Tasodifiy yozuvlarni alohida varaqchalarga yozib keyin ularni tegishli daftar yoki kitobchaga qo'shib qo'yish afzalroq. Doimiy ishlab chiqiladigan fanlarga kartochkali tizimni joriy etish ma'qul. Bunday tizimning afzalligi istalgan vaqtda xatto ish vaqtida kartochkalarni guruhlashtirish va qayta guruhlashtirish mumkin. Ularni doklad o'qiganda ma'ruza, majlis, konferensiya va hakoazolarda o'zi bilan olib yurish qulay.

Kartochkalarni doimo olib yurish qulayligi bilan birgalikda, ularni istalgan vaqtda hamda istalgan joyda qayd qilib borish mumkin, uyda esa ular guruhlashtiriladi.

8. Har bir o'quvchi shuni esda tutish kerakki, yaxshi o'zlashtirilgan yozish texnikasi asta sekinlik bilan qimmatli hisoblanadigan fikrlarni qisqa belgilab olish ko'nikmasini beradi. O'z navbatida qayd qilish uchun ozgina vaqt sarflanadi. Bu esa muhim ma'ruza yoki doklad oldidan diqqatni jamlab, tinch holatda o'ylab olish imkonini beradi.

Bunday texnikaga hamma ma'ruzalarni yozib olish natijasida erishiladi. Avval, buni qoramaga yozib, toki ma'ruzalarni qayd etishda mukammallik ko'nikmasi shakllanmaguncha ko'chirib boriladi.

9. Yozmasdan turib eshitib, ma'ruzalarni yaxshi o'zlashtirib bo'lmaydi. Yozish xotirani yukdan bo'shatadi. Yozmay biz eslab qolish uchun qattiq zo'riqamiz (sezmaganda holda), ma'ruzaning boshida aytilgan qaysidir fikrni unitib qo'yamiz. Eshitib yozish yozmaslikdan ko'ra osonroq. O'z yozganlaringiz doimo kitobdan o'qilgandan ko'ra tushunarliroq bo'ladi. So'zma-so'z yozishdan qochib, o'z so'zlaringiz bilan nimani aytolsangiz shuni qayd qiling, xuddi shu holat uy vazifalarini bajarishda qaytariladi: mazmuni to'ldirish uchun o'zgartirish kiritish mumkin bo'lgan joyda mexanik tarzda ko'chirmaslikka harakat qiling.

2.2. Auditoriyadan tashqari jarayonda pedagogika kolleji o'quvchilarini ijtimoiy moslashtirish texnologiyasi

Ijtimoiy moslashuv boshqariladigan jarayon bo'lib, o'quvchi shaxsiga maqsadga yo'naltirilgan ta'sir natijasida ularda moslashuvchan xulq-atvor ko'nikma va malakalari tarkib topib, inqirozli holatlarning salbiy ta'siri kamayadi. Bizgacha amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalaridan shu narsa ma'lum bo'ladiki, inqirozli holatlarning salbiy ta'sirlarini yana-da, kamaytirish uchun auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvchanlik darajasini oshirishga yo'naltirilgan texnologiyani loyihalash maqsadga muvofiqdir. Ana shu asosdan kelib chiqqan holda, tadqiqot doirasida mavjud texnologiyalarni modifikatsiyalash asosida auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida pedagogika kolleji o'quvchilarini ijtimoiy moslashtirish texnologiyasi ishlab chiqildi (2.2.1-rasm):

Mazkur texnologiya ijtimoiy moslashuvning uch jihati – yangi ta'limiy muhitga moslashuv, guruh ichida, guruhlararo va kollej hayotiga integratsiyalashuv hamda o'quv jarayoni, kollej jamoasi, bo'lajak kasbga qadriyatli yo'nalganlikni o'zida birlashtiradi. Ta'limiy muhitga moslashuv axboriy-bilish tavsifiga ega bo'lib, o'quvchilarni umumiy tarzda kollejdagi shart-sharoitlar, kollej

rahbariyati, o'qituvchilar va o'quvchilar bilan tanishuvini talab etadi. Integratsiyalashuv esa, o'quvchining rahbariyat, o'qituvchilar, guruh ichida, guruhlararo faol muloqot o'rnatishni taqozo etadi. Inteorizatsiya kasbiy shakllanish omili sifatida pedagogika kollejiga nisbatan qadriyatli munosabatning shakllanishiga xizmat qiladi.

Bosqichlari	Maqsadi	Mazmuni	Shakl, metod va vositalari	Kutiladigan natija
Yangi muhit sharoitlariga ko'nikish	O'quvchilarni ta'lim muassasasi sharoitlarini muvafaqqiyatli o'zlashtirish-lariga erishish	Pedagogika kollejidagi o'quvchilarga qo'yiladigan talablar, rahbar-xodimlar, o'qituvchilar va guruhdoshlar haqida ma'lumotga ega bo'lish	Axborot to'plash, anketa, uchrashuvlar, suhbat, taqdimot, trening, o'yinli texnika	O'quvchilarda axboriy-bilishga doir kompetentlik tarkib topadi
Integratsiyalashuv	O'quvchilarni ta'lim muassasasi hayotida faol ishtirok etishga jalb etish.	Kollej miqyosidagi o'tkazilayotgan tadbirlarda ishtirok etish, kollej rahbariyati, o'qituvchilar va o'quvchilar bilan doimiy barqaror muloqot o'rnatish	Kollej miqyosidagi tadbirlar, o'quv seminarlari, ekskursiya, to'garaklar, maslahat, guruhlarda ishlash, trening	O'quvchilarda shaxslararo kommunikativ kompetentlik tarkib topadi.
Inteorizatsiya	O'quvchilarda ta'lim muassasasiga nisbatan qadriyatli munosabatni shakllantirish	Kollej, rahbariyat, o'qituvchilar va o'quvchilar, ta'lim muassasadagi an'ana va xulq-atvor qoidalarini qadriyat sifatida qabul qilish	Ijtimoiy fikr, o'quv loyihasi, debat, imitatsion o'yinlar	O'quvchilarda o'quv jarayoniga, kollej jamoasi, kasbga doir qadriyatli yo'nalganlik tarkib topadi

2.2.1-rasm. Pedagogika kolleji o'quvchilarini ijtimoiy moslashtirish texnologiyasi

Texnologiyaning yangi ta'limiy muhitga moslashuv bosqichida “Qor yig’imi”, “Olma”, “Ismlar - fazilatlar”, “Juftlik asosida tanishuv” kabi tanishuv o’yinlaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

“Qor yig’imi”. Trener ko’rsatmasiga binoan uning o’ng yoki chap tomonida turgan ishtirokchilardan bittasi o’z ismini aytadi. Ikkinchisi esa birinchi ishtirokchining va o’zining ismini aytadi. Uchinchi ishtirokchi esa birinchi, ikkinchi ishtirokchining va o’zining ismini aytadi. Shu tariqa oxirigacha davom etadi. Oxirgi ishtirokchi birinchi ishtirokchidan boshlab to guruh a’zolarining hammasini va o’zining ismini aytadi. Guruh a’zolarining bir-biri bilan tanishishi ana shu tarzda amalga oshadi.

“Olma”. Qatnashuvchilar davra qurib o’tiradilar. Boshlovchi “Mening ismim... Men ...ni yaxshi ko’raman (xohlagan narsa yoki kishini aytishi mumkin)”, – deydi va olma (koptok)ni biron kishiga qarab otadi. Olma (koptok)ni ilib olgan ishtirokchi ham o’z navbatida o’zini shunday tanishtiradi va koptokni boshqa ishtirokchiga uzatadi. O’yin barcha ishtirokchilar o’zlarini tanishtirib bo’lgunlariga qadar davom etadi.

Ishtirokchilar tanishtirish jarayonida aytilishi mumkin bo’lgan jumlar:

Men ...ni yaxshi ko’raman.

Bolalagimdan yaxshi ko’rgan ovqatim ... edi.

Men yoqtiradigan rang (gul yoki meva) – ...

“Ismlar – fazilatlar”. Bu o’yin guruh ishtirokchilarining kayfiyatini ko’tarish, ishtirokchilar o’zlarini yaxshi his etishlari uchun tashkil qilinadi.

Har bir ishtirokchi biron-bir ismning birinchi harfi bilan boshlanadigan shaxsning ijobiy xarakter xususiyati, kishi fazilati nomini aytish lozim. (Masalan, Behzod – yaxshi farzand, Sardor – rahbar va hakoza).

“Juftlik asosida tanishuv”. Ishtirokchilar juft-juft bo’lib o’n minut davomida bir-birlariga o’zlari haqida ma’lumot beradilar. Keyin ulardan biri ishtirokchilar bir-birlarini tanishtirgunlariga qadar davom etadi.

Texnologiyaning integratsiyalashuv bosqichida guruhda o'zaro muloqotga kirisha olish ko'nikmasi hamda ularda kommunikativ va empatik sifatlarni shakllantirishga yordam beruvchi treninglardan foydalanish maqsadga muvofiq.

“Xushmuomalalik” treningi.

Treningning maqsadi: ishtirokchilarda guruhda o'zaro muloqotga kirisha olish ko'nikmasini shakllantirish.

Materiallar: vatman qog'ozlari, markerlar.

Vaziyatlar:

1. Siz ko'p vaqt bo'ladigan muhitda qanday muloqot (xulq-atvor) qoidalari qabul qilingan?

2. Bir-biringiz bilan qanday salomlashasiz, qanday minnatdorchilik bildirasiz?

3. Minnatdor ekaningizni qanday imo-ishoralar yordamida ifoda etasiz?

4. Noroziligingiz yoki e'tirozingizni qanday imo-ishoralar yordamida ifoda etasiz?

5. Nima uchun yoshlar doirasida “rahmat” va “marhamat”, “minnatdorman” yoki “malol kelmasa” degan jumlar kam aytiladi?

Treningni borishi:

1. Trener ishtirokchilar amalga oshiradigan vazifalarni quyidagicha tushuntirib beradi: keling, mashg'ulotimiz davomida munosabatlarning “xushmuomalalik” deb atalmish yangi uslubini sinab ko'ramiz. Avvaliga, xushmuomalalikka doir qoidalar ro'yxatini ishlab chiqamiz. 5 daqiqa ichida har biringiz qoidalar jamiga kiritilishi kerak bo'lgan takliflaringizni tuzib chiqasiz. Keyin ularni muhokama qilib, oxirgi (yakuniy) ro'yxatni ovozga qo'yamiz.

Bu xushmuomalalik qoidalari guruhda amal qilishi uchun jarimalar tizimini joriy etamiz, uni ham o'zingiz ishlab chiqasiz. Sizga qoidalarni buzganlarga nisbatan qo'llanadigan muayyan jazolarni o'ylab qurish uchun yana 5 daqiqa beriladi.

2. Ishtirokchilar dastlab har birlari xushmuomalalik qoidalari va ularga amalga qilinmaganda beriladigan jarimalar tizimini ishlab chiqishadi.

3. Ishtirokchilar ixtiyoriy ravishda guruhlarga bo'linadilar va o'z qoidalari va jarimalar tizimini birgalikda muhokama qilishadi.

4. Muhokama tugaganidan so'ng, guruhlardan bir a'zo chiqib, o'zlari ishlab chiqqan xushmomalilik qoidalari va ularga amalga qilinmaganda beriladigan jarimalar tizimini taqdim etishadi.

5. Barcha guruhlarning taqdimotidan so'ng, guruhlar tomonidan shakllantirilgan qoida va jarimalar tizimi orasidan eng asosiylari belgilanib olinadi va jadval ko'rinishida rasmiylashtiriladi.

“Oliyjanoblik” treningi.

Treningning maqsadi: o'quvchilarda kursdoshlari va guruhdoshlariga nisbatan g'amxo'rlik va oliyjanoblik sifatlarini shakllantirish.

Materiallar: vatman qog'ozlari, markerlar.

Vaziyat: Ma'lumki, garchi bu, bir qarashda, aksi bo'lib ko'rinsa ham, boshqalarga berar ekan, kishi bundan-da ko'proq oladi. Boshqalar foydasiga qilingan har qanday tantilik xotirada anchagacha saqlanib qoladi. SHunga qaramay, har qanday odamda, oliyjanoblikka intilishlarni tutib taradigan, o'zi uchun yashash istagi bo'ladi. keling, shu ikki ibtidoni solishtirib ko'ramiz.

Treningni borishi:

1. Trener dastlab ishtirokchilarning har biridan alohida o'z orzularini yozishlarini so'raydi.

2. So'ngra o'z orzulari yozilgan qog'ozni yonidagi o'rtog'i bilan almashishadi. O'rtog'ining orzulari bilan tanishish jarayonida o'quvchi quyidagi savollarga javob izlashi kerak:

1) do'stingizning orzusi amalga oshishi uchun qanday yordam bergan bo'lardingiz?

2) do'stingizning orzularini amalga oshishi uchun nimalardan voz kecha olasiz?

3) do'stingizning orzularini amalga oshishi uchun qanday maslahatlar bera olasiz?

3. O'quvchilar so'ngra o'z orzularini guruhda muhokama qilishadi. Ulardan har biri o'z orzulari bilan do'stlarining orzulari o'zaro taqqoslanib, o'xshashliklar aniqlangan diagrammani tuzishadi. So'ngra guruhlar navbati bilan o'z orzularini va ularni amalga oshirish maslahatlarini taqdimot qilishadi.

“Yordamchilar” treningi.

Treningni maqsadi: o'quvchilarda o'zaro yordamga tayyor turish, do'stlik va mardlik fazilatlarini tarbiyalash.

Vaziyat: Keling, so'nggi marotaba kimga va nima uchun yordam berganimiz haqida bir-birimizga aytib beramiz. U Kim edi? Eng yaqin qarindoshingizmi, yaqin do'stingizmi, balki u mutlaqo notanish kishidir?.. Xo'sh, u kishini esladingizmi? Endi qanday sharoitda sharoitda ro'y berganini eslang. U kishi o'zi yordam so'radimi yo bu sizning tashabbusingizmidi?

Kim boshqalarga ko'rsatgan beg'araz yordami haqida gapirib berishga tayyor?

Hikoya davomida boshqa qatnashchilar so'zlovchining gapirish uslubi, imo-ishoralari, tanaffuslariga va shu kabilarga e'tibor qilib tinglashlari kerak.

“Bir-biri uchun” treningi.

Treningni maqsadi: o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni yuzaga keltirish, emotsional yaqinlikni hosil qilish.

Materiallar: vatman qog'ozlari, markerlar.

Vaziyat: Insonlar bir-biri uchun yaralgan. Bugun bu isbot talab qilmaydigan haqiqat. Agar kimningdir xohishi bo'lsa, bu fikrni muhokama qilishimiz mumkin.

Bu etyudning asosiy vazifasi guruhning har bir a'zosi Sizga qayerda va nima naf keltirishi mumkinligi haqida o'ylab ko'rishdan iborat. Masalan, Siz “Mansur” ismini yozdingiz va qarshisida “U bilan biznes boshlasa, sayohatga chiqsa va futbol haqida gaplashsa bo'ladi”, deb yozdingiz. “Sevara” ismi qarshisida esa “U bilan oila qursa, farzandlarni tarbiyalasa, teatr va she'riyat, albatta, taom tayyorlash sirlari haqida gaplashsa bo'ladi”, deb yozdingiz. Shu tariqa, Siz guruhning barcha a'zolari ro'yxatini tahlil qilib chiqishingiz kerak. Keyin katta davraga birlashib,

bir-birimizni eshitib ko'ramiz. O'ylaymizki, "Men nimaga yararkanman?" degan savolga javob topish hammaga qiziq bo'ladi.

"Hamma – ba'zilar – faqat men" treningi.

Hamma keng doira shaklida qo'yilgan stullarga o'tiradi. O'yin ishtirokchilari soni qancha bo'lcha, doirada shuncha stul bo'lishi kerak. Trener (murabbiy) o'rtada turadi (stulsiz).

- Hozir men ba'zi o'quvchilar haqida nimadir aytaman. Aytganlarim taalluqli bo'lganlar darrov o'rnidan turadi va bo'sh qolgan stullardan birini egallashlari kerak bo'ladi. Aytganim o'zimga tegishli bo'lsa, men ham kimningdir stulini egallashim mumkin. Stulsiz qolgan o'quvchi esa boshlovchi bo'ladi. Bo'sh turgan stulga o'tirib olish ta'qiqlanadi. Qani, sinab ko'ramiz.

"Bugun yaxshi kayfiyatda uyg'onganlar..."

"Bugun o'qishga kelganlar..."

"Sochiga tilla rang tasma bog'laganlar» (Faqat birgina qizga tegishli belgi tanlanadi. U o'rnidan turganida, boshlovchi uning o'rnini egallashga harakat qiladi).

O'yinga birinchi urinishdan keyin boshlovchi "kartalarni ochib tashlaydi":

- Men uchta savol berdim. Birinchi holda ayrimlar javob qildi, boshqalar esa "Bu menga tegishli emas",- deyishdi. Ikkinchi holda hamma javob qildi. Uchinchi holda faqat bir kishi. Bu o'yin shunday nomlanadi "Hamma – ba'zilar – faqat men".

O'yin shu tarzda davom etadi. Bu o'yin yordamida o'quvchilar bir-birlari haqida yangi ma'lumotlarni bilib olishga muvaffaq bo'ladilar.

"Qadr-qimmat tuyg'usi" treningi.

Treningni maqsadi: o'quvchilarda o'z-o'zini namoyon etish, o'z-o'zini baholash va boshqalar bilan aks aloqaga kirisha olish ko'nikmalarini shakllantirish.

Materiallar: vatman qog'ozlari, markerlar.

Treningni borishi:

1. Dastlab barcha o'quvchilar bir varaq qog'ozga o'zining alohida jihatlari ro'yxatini tuzishadi.

2. So'ng trener ularning biridan o'zining alohida jihatlari ro'yxatini o'qib berishni so'raydi.

3. O'quvchi o'z ro'yxatida yozilganlarini o'qib bo'lgach, trener boshqa o'quvchilar orasidan mazkur o'quvchi haqida fikr bildirishlarini so'raydi, ya'ni aks aloqa vaziyati vujudga keltiriladi.

O'quvchilar aks aloqa jarayonida quyidagilarga rioya qilishlari shart:

- 1) aks aloqani Sizdan biror o'quvchi haqida so'rashganlaridagina bering;
- 2) fikr va tuyg'ularingiz haqida gapirayotib, ularni keltirib chiqargan aniq so'z va xatti-harakatlarni tilga olib o'ting;
- 3) boshqani xafa yoki haqorat qiladigan tarzda gapirmang;
- 4) baho bermang;
- 5) maslahat bermang: "Sening o'rningda bo'lsam,...", "Sen ... qilishing kerak" kabi jummalarni ishlatmang.

4. Mazkur vaziyat so'nggi ishtirokchi o'z ro'yxatida yozilganlarini o'qib berib, unga aks aloqa ko'rsatilguniga qadar davom etadi.

"Proyektiv rasm" treningi. Hammadan ikkita rasm ishlash so'raladi: "men qandayman" va "men qanday bo'lishni istayman". Rasm ishlashga besh daqiqa ajratiladi. Rasmlar imzolanmaydi. Rasmning texnik jihatlari muhim emas. Hamma rasmlar xona o'rtasida yoyiladi. Keyin bittasi tanlab olinadi. Hammaga ko'rinadigan qilib qo'yiladi. Keyin hamma navbat bilan nimani ko'rayotganini aytadi. U yerda nima chizilgani va nimani his qilganini, rasm ishlagan kishi, uningcha, o'zini qanday ko'rayotgani va qanday ko'rishni istayotgani(nimani o'zgartirmoqchi ekani) haqida gapiradi. Hamma navbat bilan gapiradi. Bunda muallif o'zini tanishtirmaydi. Hamma xohlovchilar gapirib bo'lgach, rasm muallifini topishga urinib ko'rish mumkin. Keyin muallif o'zini tanitib, rasmida nimani ifoda etmoqchi bo'lganini tushuntiradi, o'ziga yoqqan replikalarga javob qaytaradi. Muhokama chog'ida kimning talqini mualliflarga ko'proq yoqqanini aytib o'tiladi.

Inteorizatsiya bosqichida o'quvchilarda qadriyatlarni ichki qabul qilishga doir trening mashg'ulotlarini o'tkazish ko'zda tutiladi.

“Tarbiyali bo’lish nima degani?” treningi.

Treningni maqsadi: o’quvchilar o’rtasida muloqotning maqbul muhitini yaratish; ularni boshqa kishilarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo’lishga o’rgatish.

“Fikriy hujum” uchun savollar:

1. Qanday xulq-atvor me’yorlarini bilasiz (sanab beriladi, ustuncha shaklida yoziladi)?

2. Qaysilarini bilmaysiz, ammo bilishni istaysiz?

3. Bu qoidalarni bilish osonmi?

4. Ularga rioya qilish nima degani:

- rasman, avtomatik bajarish;

- hamma vaqt bir xilda, vaziyatga bog’liq bo’lmagan holda bajarish;

- nima uchun shunday qilish kerakligini tushunish;

- ularni bajarganda qandaydir hislarni tuyish (misol keltiring);

- o’ylash, nimanidir tushunish, bilish (?) – aynan nimani, Sizningcha?

5. Nima uchun tarbiyali bo’lish kerak? Xulq-atvor qoidalari nima uchun mavjud?

Treningni borishi:

1. Dastlab savollarga o’quvchilar individual javob yozishadi.

2. So’ngra guruhlarga birlashib, o’z javoblarini birgalikda muhokama qilishadi.

3. So’ng guruhlarning javoblari umumlashtirib, xulq-atvor qoidalari tizimi shakllantiriladi.

Bu savollar o’quvchini tarbiya ko’rganlik odob qoidalarini rasman bajarish emas, balki:

- kishilar o’rtasida yashashning va muloqotning maqbul muhitini yaratish;

- boshqa kishilarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo’lish vositasi;

- o’zida ma’lum xarakter qirralarini rivojlantirish ekanini tushunishga olib keladi.

“Men qanday odamman?” treningi.

Boshlovchi: kishi ko'pincha, boshqalarga savol berishni yaxshi ko'radi. Bu savollar turli xil narsalar haqida bo'lishi mumkin, biroq kishining aynan o'zi haqida emas. Biz Siz bilan esa bugungi mashg'ulotda "Men qanday odamman?" degan savolga javob beramiz.

Bir yozilmagan varaq oling va quyidagi savollarga javob bering:

1. Mening asosiy yutuq va kamchiliklarim nimadan iborat?
2. Oilam – ota-onam, aka-ukalarim va opa-singillarim, yaqinlarim menga qanday ta'sir ko'rsatishadi?

Javoblaringiz imkon qadar ochiqchasiga berilishi kerak, zero ularni Sizdan boshqa hech kim ko'rmaydi. Ruxsatingiz bilan men ularni ko'rib chiqaman. Mana shu tarzda o'ndan ortiq javob to'planadi. Bu javoblar o'zingizni yaxshiroq bilib olishga Sizga yordam beradi.

Avvalgi mashg'ulotda aniqladikki, o'zini jamiyatda to'g'ri tutishga o'rganish uchun nafaqat odob qoidalarini o'zlashtirish, balki o'zida xarakterning ma'lum qirralarini shakllantirishga intilish kerak. O'z ustida ishlash, odatlari va xarakteri haqida o'ylab ko'rish kerak. Har birimizga chindan-da, tarbiyali va madaniyatli kishi bo'lishga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan xarakter qirralarini aniqlashga urinib ko'ramiz.

O'zingizni quyidagi vaziyatlarda sinab ko'ra olasizmi?:

Ko'chada uchrab qolgan keksa odamga mayin tabassum bilan xaridini olib borishga yordam berasiz, saldan keyin esa notanish ikki ayolni turtib o'tib, navbatsiz bilet olishga urinasiz?

Agar nunday qilsangiz, sira shubhalanmang: sizda ko'r-ko'ronalik (xo'jako'rsinga ish qilish) bor, Siz bu siz uchun foydali bo'lgan vaziyatlarda o'zingizni madaniyatli qilib ko'rsatasiz, xolos.

Aslida, chinakam muloyimlik bayramona libos emas, kundalik kiyim-bosh, u haftaning har kunida orasta va chiroyli bo'lishi kerak.

Xulq-atvor madaniyati – madaniyatli kishi rolini o'ynashni istagan havaskor aktyor uchun ssenariy emas. U hayotni oxiri yo'q maskarad (faqat kiyimlaringi almashtirib ulgursang bo'lgani) deb tushunadiganlar uchun ham to'g'ri kelmaydi.

Kishilar ko'z o'ngida ular oliyjanob va tarbiyali bo'lib ko'rinishga urinadi, ularni hech kim ko'rmaydigan va to'xtatmaydigan joylarda esa, quyunday shoshiladi, baqiradi, eshikni qarsillatib yopadi va sh.k.

Bu yerda qanday xarakter qirralari namoyon bo'ladi?

Uyga (o'quvchilar turar joyiga) qaytgach, kiyimlarni almashtirmasdan, muzlatkichdan yoki stoldan birinchi duch kelgan yegulikni olasiz, kosaga suzmasdan, qozonning o'zidan yeyishni boshlaysiz. To'ygach, og'zingizni yengingizga artasiz va mamnun bo'lib stulda yo divanga yonboshlaysiz.

Nima deb o'ylaysiz, mehmonda o'zingizni qanday his qilasiz va tutasiz?

Ehtimol, bunday:

Pichoq va sanchqilar qo'lingizdan "sakrab", polga tushadi; qo'llaringiz og'izni yengga artish uchun avtomatik tarzda bukiladi.

Biroq... agar har kuni uyda tartib bilan, pichoq va sanchqidan to'g'ri foydalanilsa, bu hamma vaqt qulay va oson bo'lardi.

Xulosa:

Yaxshi xulq doimiy mashqni talab qiladi.

To'xtash, tanaffus qilish mumkin emas.

O'zingizni uyda va ko'chada turlicha tutadigan bo'lsangiz, hech qachon yaxshi xulq egasi bo'la olmaysiz.

Nima deb o'ylaysiz, uyda, o'qishda, ko'chada, mehmonda, transportda va boshqa joylarda o'zini birdek tarbiyali tutishga qaysi usullar bilan o'rgatish mumkin?

"Do'stlarim va tanishlarimning muvafaqqiyatlari va hayotidagi quvonchli voqealar" treningi.

Dastlab guruhda kichik guruhlar hosil qilinadi. Keyin bir necha ishtirokchi quyidagi savollarga javob beradi:

1. Do'stlaringizning yutug'iga qanday munosabat bildirasiz?
2. Do'stlaringizning yutuqlari Siznikidan yaxshiroq bo'lsa, bunga qanday munosabatda bo'lasiz?

Endi diqqat!

O'zingizga javob bering.

Sizda shunday bo'lganmi?

1. Do'stingiz (matematika, biologiya, ona tili bo'yicha) olimpiadada sovrinli o'rinni egalladi. Uni tabriklash kerakligini bilasiz, biroq bunga o'zingizda kuch topa olmaysiz. Uning o'rnida bo'lishni istaganingiz, u Sizdan o'zib ketgani uchun o'zingizni yomon his qilasiz.

2. Do'stingizga (dugonangizga) yangi uyali telefon sovg'a qilishdi (yoki u sotib oldi). U baxtiyor va Siz bilan quvonchini bo'lishmoqchi.

O'zingizni qanday tutishingiz kerak? Ehtimol, xayrihoh insonga xos tarzda unga nimadir iliq so'z aytish, buyumni maqtash kerakdir. Nima uchun buning o'rniga biz:

- o'zimizni befarq ko'rsatamiz yoki hatto u tomonga qaramaslikka urinamiz;
- jahl va mensimaslik bilan "qoyil qoladigan joyi yo'q. Eskirgan model" yoki "Almisohdan qolgan-ku! Qayerdan olding" deymiz.

Bunday xatti-harakat va so'zlar kishining qaysi sifatlaridan dalolat beradi, nima deb o'ylaysiz?

Bu o'rinda kishi xarakterining yana bir xususiyatiga duch keldikki, uni bostirishga harakat qilinmasa, u o'zimizni munosib va tarbiyali tutishimizga sira yo'l qo'ymaydi.

Bu – hasad!

4-trening mashg'uloti. "Mas'uliyat hissi"

"Fikriy hujum" uchun savollar:

1. Mas'uliyat nima?

2. Mas'uliyatni qanday tushunasiz?

3. Qanday majburiyatlarga egasiz?:

- uyda, oilada, yotoqda;

- o'qishda;

- do'stlaringiz bilan munosabatlarda;

- yana kimlar bilan?

4. Ularni qay tarzda va hamma vaqt ham bajarasizmi?

5. Siz intizomli (majburiyatini his qiladigan) kishimisiz? Birovlarning sirini saqlay olasizmi? Va'dalaringizni bajarasizmi? So'zingizning ustidan chiqasizmi?

6. O'quv topshiriqlarini vaqtida bajarasizmi?

7. Shoshilinch ishlarni "keyinga" qoldirish odatigiz yo'qmi?

8. Sizga ishonib aytilgan bironing sirini boshqalarga aytib bergan vaqtigiz bo'lganmi?

Bularning bari: majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish, so'ziga sodiq bo'lish, boshqalarning ishiga aralashmaslik, mas'uliyatlilik, kamtarlikdan dalolat beradi.

O'zingizda tasavvur qilib ko'ring.

Har birimizning shunday tanishimiz borki, uning fikrini qadrlaymiz. Unda yaxshi taassurot qoldirishga intilamiz. U haqida o'ylaymiz, u bilan ko'proq birga bo'lishni istaymiz. Endi tasavvur qiling, bu kishi hamma vaqt sizga yaqin bo'ladi va Sizni kuzatadi. Bu Sizni tanib bo'lmas darajada o'zgartirib yuboradi. Endi Siz kattalar bilan munosabatda qo'pollika yo'l qo'ymaysiz yoki do'stingiz bilan urishmaysiz. Bu kishining nigohi ostida o'qishdan kela solib, paypoqni duch kelgan burchakka uloqtirish, stol ustida gazeta yozib tamaddi qilishsh, do'stingiga qo'pol so'z aytish xayolingizga ham kelmaydi. Shu tariqa tasavvur Sizga o'zingizni uyda (o'quvchilar turar joyida) odob doirasida tutish, normal ovqatlanish va atrofdegilar bilan xushmuomala bo'lishda yordam beradi. Ma'lum vaqtdan keyin (o'zingiz ham bunga ishonch hosil qilasiz) yuvilmagan qo'lingizda singib pishgan non u qadar shirin tuyulmaydi. O'rtoqlaringizning tarbiyasizligi g'ashingizga tegadi, tartibsizlikdan jahlingiz chiqadi. Yana ma'lum vaqt o'tgach esa, Siz yaxshi odatlarga ko'nikib qolganingiz va bu ichki ehtiyojga aylanganini his qilasiz.

XULOSA

Pedagogika kolleji o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvi murakkab, ko'p qirrali xodisa bo'lib, ta'lim olishni ikkinchi bosqichida o'z nihoyasiga yetishi mumkin. Mazkur jarayonda o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvi o'zida ikkita muhim jihatni aks ettiradi: 1) kasbiy faoliyat sohasiga moslashuv: o'quv faoliyatining tashkil etilishi, mazmuni, shart-sharoitlariga moslashish, o'quv-ilmiiy faoliyatda mustaqillik ko'nikmasini shakllantirish; 2) ijtimoiy-psixologik moslashuv: o'quvchining ijtimoiy guruhga, undagi o'zaro munosabatlarga moslashishi, o'zining shaxsiy xulq-atvor uslubini yaratish.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvi eng yuqori darajasini bir paytning o'zida ham muhitni, ham o'z-o'zini o'zgartirishga qaratilgan strategiyalar ta'minlaydi. Ijtimoiy moslashuvning me'yoriy natijasi sifatida shaxsdagi ichki o'zgarishlarni talab qilmaydigan ta'lim sub'ektining pedagogika kollejiga moslashishi, shuningdek, xulq-atvorning muqobil modellari(muhitni tark etish yoki yangi shaxsiy o'zgarishlarni qabul qilish)dan biri yuzaga keladi. Ijtimoiy moslashuvning yaqqol ifodalangan salbiy samaradorlikka ega past darajasi sub'ektning tashqi muhit bilan o'zaro ta'sirga kirishdan bosh tortishi va o'z ichki dunyosiga g'arq bo'lishida namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, o'quvchining xulq-atvori ijtimoiy dezadaptatsiya ko'rinishida namoyon bo'ladi.

O'quvchilarning ijtimoiylashuvi bilan bog'liq bir nechta omillarni o'rganish natijalaridan ma'lum bo'ladiki, pedagogika kolleji o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvi qandaydir bitta omil ta'sirida amalga oshishi mumkin emas. Mazkur jarayonda bir yoki bir necha yo'nalishdagi harakatni yuzaga keltiruvchi qator omillarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarning ijtimoiy moslashuvidagi sifat hamda miqdor farqlari aynan bevosita yoki bilvosita o'quvchilarning olam haqidagi sub'ektiv qarashlari, ko'plab harakat, xulq-atvor me'yorlarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi moslashuv omillariga bog'liqdir.

Tadqiqot doirasida mavjud texnologiyalarni modifikatsiyalash asosida auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida pedagogika kolleji o'quvchilarini ijtimoiy moslashtirish texnologiyasi ishlab chiqildi. Mazkur texnologiya ijtimoiy moslashuvning uch jihati – yangi ta'limiy muhitga moslashuv, guruh ichida, guruhlararo va kollej hayotiga integratsiyalashuv hamda o'quv jarayoni, kollej jamoasi, bo'lajak kasbga qadriyatli yo'nalganlikni o'zida birlashtiradi. Ta'limiy muhitga moslashuv axboriy-bilish tavsifiga ega bo'lib, o'quvchilarni umumiy tarzda kollejdagi shart-sharoitlar, kollej rahbariyati, o'qituvchilar va o'quvchilar bilan tanishuvini talab etadi. Integratsiyalashuv esa, o'quvchining rahbariyat, o'qituvchilar, guruh ichida, guruhlararo faol muloqot o'rnatishni taqozo etadi. Inteorizatsiya kasbiy shakllanish omili sifatida pedagogika kollejiga nisbatan qadriyatli munosabatning shakllanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – T.: O'zbekiston, 1992. – 71 b.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari // O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: O'zbekiston, 1998. – 776 b.
3. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. 7-jild. – T.: O'zbekiston, 1999. – 36 b.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 171 b.
5. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009. – 59 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2009. – 41 b.
7. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni// “Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori” kitobida. – T.: SHarq, 1997. – B. 20-29.
8. O'zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”// “Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori” kitobida. – T.: SHarq, 1997. – B.31-61.
9. Barkamol avlod orzusi. – T.: SHarq, 1999. – 184 b.
10. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar – T.: O'zbekiston, 2001. – 32 b.
11. Aleksandrovskiy YU.A. Pogranichnye psixicheskiye rasstroystva. - M.Meditsina, 2008. 237s.
12. Galaguzova A.N., Galaguzova M.A., I.A.Larionova. Sotsialno-pedagogcheskiye zadachi. – M.: VLADOS, 2008. – 191 s.
13. Ismatova N.G. Upravleniye protsessom professionalnoy adaptatsiya molodyx pedagogov sredney shkolы. Diss. ...kand.ped.nauk. – T., 2011. – 170 s.

14. Kamilova N.G., Xaydarov F.I. Muammoli o'smir, moslashuv, tashxis, korreksiya usullari. – T.: RBIIM, 2008. – 130 b.
15. Mardiyeva G.Q. Texnologiya sotsialnoy adaptatsii studentov I kursa pedagogicheskogo vysshego uchebnogo zavedeniya. // The Review of Central Asian Studies. – Korea, 2011. - №5 – B. 131-150.
16. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. – 760 b. – B.15.
17. Melnikova H.H. Protsess sotsialno-psixologicheskoy adaptatsii: Podxodы k izucheniyu //Teoreticheskaya, eksperimentalnaya i prakticheskaya psixologiya: Sb. nauch. tr. CHelyabinsk: YUurGU, 1998. – T.1. – S. 31-49.
18. Mixeyeva L.V. Sotsialnaya adaptatsiya vypusknikov kolledja k obucheniyu v vuze. Monografiya Orel: GOU VPO «OGU», 2010. – 145 s.
19. Mudrik A.V. Osnovy sotsialnoy pedagogiki. – M.: ACADEMA, 2006. – 205 s.
20. Mustafayeva F.A. Sotsialnaya pedagogika. – M.: Akademicheskii Proyekt-Ekaterinburg: Delovaya kniga, 2003. – 528 s.
21. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at. – T.: SHarq, 2000. – 320 b.
22. Nalchadjyan A.A. Sotsialno-psixicheskaya adaptatsiya lichnosti (formy, mexanizmy, strategii) yerevan, 2008. – 236 s.
23. Pedagogicheskii ensiklopedicheskii slovar. – M.: Bolshaya Rossiyskaya ensiklopediya, 2002. – 527 s.
24. Rozum S.I. Psixologiya sotsializatsii i sotsialnoy adaptatsii cheloveka. SPb.: Rech, 2006. – 356 s.
25. Saliyeva Z. Pedagogika kolleji o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish – kasbiy ijtimoiylashtirish omili sifatida: Pedagogika fanlari nomzodi. ... diss. – T., 2010. – 146 b.
26. Sodiqova SH.A. Talabalarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash. – T.: TDPU, 2009. – 68 b.
27. Falsafa: ensiklopedik lug'at. – T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. – 344 b.

28. SHepilova N.A. Sotsialno-pedagogicheskaya adaptatsiya studentov vuza v protsesse formirovaniya ix sennostnogo otnosheniya k pedagogicheskoy professii: avtoreferat dis. ... kand. ped. nauk. Magnitog. gos. un-t. Magnitogorsk, 2003. – 19 s.
29. Egamberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 232 b.
30. Egamberdiyeva N.M. Madaniy-insonparvarlik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2009. – 135 b.
31. Egamberdiyeva N.M. Talabalarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirishga qadriyatli yondashuv: mazmun va mohiyati // Pedagogik ta'lim. – Toshkent, 2008. – №6. – B.13-18.
32. Egamberdiyeva N.M. Bo'lajak pedagogning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta'minlovchi omillar. // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2009. – №3. – B.14-19.
33. Egamberdiyeva N.M. Modeli sotsialno-pedagogicheskoy adaptatsii studentov pedagogicheskogo vuza kak faktor ix professionalnogo stanovleniya // Ob'edinenny nauchnyy jurnal. – Moskva, 2009. – №6. – S.27-30.
34. Yuzlikayev F.R. Teoriya i praktika intensivatsii didakticheskoy podgotovki budushego uchitelya v sisteme vysshego pedagogicheskogo obrazovaniya (na materiale pedagogicheskix dissiplin): Dis. ... dokt. ped. nauk. – T., 2005. – 303 s.
35. Quronov M., Qurboniyozova Z. Ijtimoiy pedagogika – T.: RTM, 2002. – 134 b.
36. Hayitov O., Umarova N. YOshlarda professional o'sishga intilishni rivojlantirishning nazariy-amaliy asoslari. – T.: "TURON-IQBOL", 2011. – 128 b.